


«KELISHILDI»

Navoiy viloyati hokimligi

Huzuridagi Jamoatchilik

Kengashi raisi



N. Tog'ayeva

“ ” dekaabr 2025-yil

«TASDIQLAYMAN»

Navoiy viloyati Korrupsiyaga qarshi

kurashish hududiy kengashi raisi



G. Aliyev

“ ” dekabr 2025-yil

Navoiy viloyati Nodavlat-notijorat tashkilotlari - “Do'stlik uyi”da o'tkazilgan
taqdimot yig'ilishining _____-sonli

B A Y O N N O M A S I

Raislik qiluvchi:

H. Jumayev – Oliy Majlis huzuridagi Jamoat
fondining viloyat hududiy bo'linmasi boshlig'i v.v.b

Ishtirok etuvchilar:

Navoiy viloyati hokimligi, Navoiy viloyati
Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashi
hamda Navoiy viloyati hokimligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi

Viloyatdagi nodavlat-notijorat tashkilotlari vakillari
(ro'yxat asosida)

K U N T A R T I B I:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2025-yil 5-mart kuni o'tkazilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Milliy kengash yig'ilishida berilgan topshiriqlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-71-sonli Farmoniga asosan viloyatda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha tasdiqlangan “YO'L XARITASI” ijrosi.

2. 9 dekabr - “Xalqaro korrupsiya kuni”ga bag'ishlangan “Aksikorrupsiya oyligi doirasida o'tkaziladigan tadbirlar rejasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy Kengashi majlisining 28-sonli bayonnomasida belgilangan “Hududlarda nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida amalga oshirilgan grant loyihalari taqdimoti” bandi ijrosi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-288-son qarori Ilovasi 3-bandida belgilangan “Fuqarolik jamiyati institutlarining loyihalari va tashabbuslarini amalga oshirish orqali har bir hudud va soha kesimida maishiy korrupsiya holatlarini

keltirib chiqaradigan omillarni bartaraf qilishga qaratilgan “Navoiy tajribasi”ni yaratish” borasida amalga oshirilayotgan ishlar to’g’risida

(H.Jumayev, F.Mansurov, M.Xamidov, F.Xasanov, I.Toshpo’latov, A.Jaynarov va bosh.)

Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondining viloyat hududiy bo’linmasi boshlig’i H.Jumayev yig’ilishni ochib berib, kun tartibidagi muhokama qilinishi lozim bo’lgan masalalarni o’qib eshittirdi.

Shundan so’ng, viloyat Nodavlat notijorat tashkilotlari uyida hamda Navoiy viloyati hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashida “9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag’ishlangan Aksilkorrupsiya oyligi doirasida bosh boshqarmada “Korrupsiyaga qarshi kurashish” borasida amalga oshirilgan amaliy ishlar haqida ma’ruza qilib tushuntirishlar berish hamda maishiy korrupsiyani bartaraf etish yuzasidan ma’ruza qilish uchun so’zni Navoiy viloyati Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy Kengashi mas’ul xodimi F.Mansurovga berdi.

Yig’ilishda O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining “Aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi hamda madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish to’g’risida” 2025-yil 27-yanvardagi KQ-49-V-sonli qarori hamda O’zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy Kengashining 28-sonli bayonnomasi ijrosi, Navoiy viloyati Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashining 2025-yil 17-noyabrdagi 9-sonli chora-tadbirlar rejasi ijrosi yuzasidan ma’ruza eshitildi.

Yig’ilish kun tartibidagi masala yuzasidan Navoiy viloyati hokimligi korrupsiyaga qarshi ichki nazoart qilish sho’basi mudiri F.Xasanov so’zga chiqib, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2025-yil 5-mart kuni o’tkazilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha Milliy kengash yig’ilishida berilgan topshiriqlar hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo’yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to’g’risida”gi PF-71-sonli Farmoniga asosan viloyatda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo’yicha tasdiqlangan “YO’L XARITASI” ijrosi bo’yicha bir qator amalga oshirilgan ishlar va kelgusida bajarilishi kerak lozim bo’lgan ishlar to’g’risida axboroti eshitildi.

Yig’ilishda so’zga chiqqan Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondining viloyat hududiy bo’linmasi boshlig’i, Navoiy viloyati hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a’zosi H.Jumayev tomonidan sohada bir qator amalga oshirilgan ishlar va kelgusida bajarilishi kerak lozim bo’lgan ishlar to’g’risida ma’ruzasi eshitildi.

Yig’ilish kun tartibidagi masala - Hududlarda nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida amalga oshirilgan grant loyihalari taqdimoti bo’yicha - Navoiy viloyati Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashi a’zosi, Navoiy viloyati hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi kotibi, **Navoiy viloyati “Noila” ijtimoiy ko’mak, huquqiy targibot va monitoring markazi** rahbari M.Xamidov so’zga chiqib amalga oshirilgan grant loyihalari va kelgusidagi vazifalar yuzasidan taqdimot qildi.

Jumladan Davlatimiz rahbari tomonidan 2025 yil 5 mart kuni o'tkazilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy Kengashining navbatdagi yig'ilishida muloqot jarayonida maishiy korrupsiyani oldini olish borasida berilgan topshiriqlar, jamoatchilik fikrini o'rganish maqsadida **"Navoiy tajribasi"ni yaratish**, uni kelgusida yilda boshqa hududlarga ommalashtirish bo'yicha berilgan topshiriqlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19 sentyabrdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-288-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, Navoiy viloyati "Noila" ijtimoiy ko'mak, huquqiy targ'ibot va monitoring markazi tomonidan 2025 yil aprel-iyun oylarida viloyat hokimligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligiga tegishli Ijtimoiy buyurtma takliflari bilan murojaat qilindi.

Ammo hozircha mazkur tashkilot va muassasalar tomonidan ijtimoiy buyurtma mablag'lari ajratilmagan.

Ma'lumki, 2025 yil iyulda Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan "Noila" IKHTM markaziga "Korrupsiya - taraqqiyot kushandasi" grant loyihasi uchun 40 mln so'm mablag' ajratib berilgan edi.

Loyiha doirasida 120 nafar fuqarolarga maishiy korrupsiyani oldini olish bilan bog'liq 128 ta bepul huquqiy maslahatlar berildi.

Shu bois, "Navoiy tajribasi" doirasida "Noila" IKHTM markazining mazkur yo'nalishdagi faoliyati alohida e'tirof etilib, 2025 yil sentyabr oyida Toshkent shahrida BMT Taraqqiyot dasturi doirasida Adliya vazirligi, Finlyandiya davlatining qator tashkilotlari va dunyo bo'yicha ko'zga ko'ringan mutaxassislari, Ombudsman, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan o'tkazilgan xalqaro anjumanda Markazga **"Bepul yuridik xizmat ko'rsatishda eng ilg'or fuqarolik jamiyati instituti"** maqomi va sertifikati taqdim etildi.

2025 yil 5 mart kuni Davlat rahbari boshchiligidagi o'tkazilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy Kengashining navbatdagi yig'ilishida Korrupsiyaning oldini olish – davlat xizmatiga professional va fidoyi kadrlarni tanlash hamda ularni "halollik vaksinasi" bilan emlashdan boshlanadi. Shu bois ishga olishdagi tartib va yondashuvlarni takomillashtirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida jamoatchilik yondoshuvi turli darajada bo'lib, kompetensiyalar har xilligi, aynan viloyat miqyosida ijtimoiy fikrni o'rganish natijalariga asoslangan yaxlit yondoshuvlar mavjud emasligi ko'zga tashlanadi. Aynan mazkur yo'nalishda davlat va nodavlat sektor o'rtasidagi samarali ijtimoiy sherikchilik munosabatlari ham o'zaro manfaatdorlikdan kelib chiqqan holda, aniq mexanizmlarga asoslanishi zarur.

Yosh mutaxassislar uchun "halollik vaksinasi" bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish bugunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi huzurida Xalqaro mintaqaviy tadqiqotlar markazi tashkil etilishi ham bejizga emas.

"Noila" ijtimoiy ko'mak, huquqiy targ'ibot va monitoring markazi rahbari M.Xamidov tomonidan Osiyo xalqaro Universiteti, Buxoro xalqaro Universiteti hamda Buxoro davlat Universiteti bilan hamkorlikda "Yosh mutaxassislarda

korruptsiya xulq-atvoriga nisbatan barqaror axloqiy pozitsiyani shakllantirishning psixologik mexanizmlari" mavzusida doktorlik ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Mazkur tadqiqotlar Oliy Majlis jamoat Fondining "Korruptsiya - taraqqiyot kushandasi" grant loyihasi bilan hamkorlikda olib borildi.

Mazkur grant loyihasi doirasida viloyatning iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan 5 ta hududida 400 nafar yoshlar hamda 200 nafar o'qituvchi-murabbiylar hamda jamoatchilik vakillari orasida ijtimoiy so'rovlar o'tkazildi.

Yoshlarning maishiy korruptsiyaga munosabati va ulardagi fikrlar, takliflar, o'qituvchilarning korruptsiya xulq-atvoriga nisbatan o'quvchi yoshlarga ko'rsatayotgan munosabati va yondoshuvlari puxta o'rganildi.

Hududlarda 10 ta targ'ibot tadbirlari, 5 ta o'quv seminarlari o'tkazilib, ularga 500 dan ortiq turli qatlam vakillari qamrab olindi.

Mazkur o'rganishlar natijasida 600 yafar respondentlarning bildirgan fikr va mulohazalari keng tahlil qilindi. So'rovnomalar natijalariga ko'ra, Navoiy viloyati "Noila" ijtimoiy ko'mak, huquqiy targ'ibot va monitoring markazi tomonidan korruptsiyaga qarshi kurashish borasida ijtimoiy fikrni o'rganish va jamoatchilik vakillari bilan olib borilgan amaliy muloqotlar natijasida korruptsiyaga murosasiz, toqatsiz avlodni shakllantirish maqsadida **"Navoiy tajribasi"** doirasida o'rta va o'rta maxsus ta'lim o'quvchilari uchun yoshlarda korruptsiyaga murosasizlik tafakkurini shakllantirish uchun ta'limiy-tarbiyaviy model sifatida **"Adolat va halollik darslari"** konsepsiyasi ishlab chiqildi va tegishli mutasaddi idoralarga taqdim etildi.

Mazkur yo'nalishda joriy yilning o'tgan aprel-noyabr oylarida 20 dan ortiq turli darajadagi materiallar chop etildi. 7 ta ilmiy nashrlar chop etilib, ulardan 1 tasi Rossiya, 1 tasi Hindiston ilmiy nashrlarida chop etildi. Tegishli sertifikatlar taqdim etildi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda 68 ta ilmiy-ommabop material va xabarlar berib borildi. 6 marotaba markaziy va mahalliy televidenielerde 4 marotaba radiokanallarda, 8 marotaba Respublika va mahalliy gazetalarda chiqishlar qilindi.

2025 yil 25 sentyabrdan 4 oktyabrga qadar Nurota tumani iqtisodiyot tarmoqlari, turizm va bandlik, maktabgacha va maktab ta'limi, er ajratish sohalarida korruptsiya munosabatlarga moyillikni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan vaziyat va hujjatlar o'rganildi. Hududlarda tushgan murojaatlar asosida 12 ta holatda o'rganishlar o'tkazilib, tegishli mutasaddi organlarga taklif va tavsiyalar kiritildi.

Ayni paytda viloyatda maktabgacha ta'lim va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida korruptsiya munosabatlarga yo'l ochadigan munosabat va yondoshuvlar hamda hujjatlar tahlili o'tkazilmoqda.

2025 yil 6-17 oktyabr kunlari Evropada xavfsizlik va hamkorlik jamiyatining Polsha Respublikasi poytaxti Varshava shahrida Inson huquqlari bo'yicha o'tkazilgan xalqaro konferensiyasida "Noila" IKHTM markazi vakillari ishtirok etib, yaratilayotgan "Navoiy tajribasi" bo'yicha taqdimot o'tkazildi, butun xalqaro miqyosda, shuningdek, Respublikada O'zbekiston Milliy Axborot agentligi, viloyat va boshqa xalqaro ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritildi. Taqdimotga Ozarbayjon, Qozog'iston, Niderlandiya, Turkmaniston, Afrika qit'asidan Sudan vakillari hamda Finlyandiya Xelsenki Universiteti Xalqaro huquq qo'mitasi raisi Tuya Braksa Xonim, Varshava Universiteti vakillari juda katta qiziqish bildirib, "Noila" IKHTM

markazi bilan hamkorlik aloqalari o'rnatildi.

2025 yil 21-25 oktyabr kunlari Toshkent shahrida "Xilton" mehmonxonasida BMT va Evropa Ittifoqi, o'ndan ortiq xalqaro tashkilotlar va 100 dan ortiq davlatlarning ekspertlari (oflayn/onlayn) ishtirok etgan nufuzli anjumanda grant loyihalarimiz doirasida korrupsiyani oldini olish bo'yicha yaratilayotgan "Navoiy tajribasi"ni yaratish borasida olib borilayotgan ilmiy va amaliy ishlar haqida taqdimot qilindi.

Mazkur anjuman orqali "Noila" IKHTM markaziga Agentlik huzuridagi Xalqaro mintaqaviy tadqiqot markazi vakillari (28.10.2025 yilda Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan), Latviya, Moldova va Qozog'iston Respublikalari ekspertlari, shuningdek, BMT Taraqqiyot dasturi vakillari juda katta qiziqish bildirib, hamkorlik aloqalari o'rnatildi.

2025 yil 27 oktyabr kuni Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan **"Korrupsiya - taraqqiyot kushandasi"** grant loyihasi muvaffaqiyatli amalga oshirilib, to'liq yakunlandi va hisobotlar belgilangan tartibda mutasaddi organlarga topshirildi.

Kun tartibidagi navbatdagi masala - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19 sentyabrdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-288-son qarori Ilovasi 3-bandida belgilangan "Fuqarolik jamiyati institutlarining loyihalari va tashabbuslarini amalga oshirish orqali har bir hudud va soha kesimida maishiy korrupsiya holatlarini keltirib chiqaradigan omillarni bartaraf qilishga qaratilgan "Navoiy tajribasi"ni yaratish" borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida Navoiy viloyati Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashi a'zosi, Navoiy viloyati hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi kotibi, **Navoiy viloyati "Noila" ijtimoiy ko'mak, huquqiy targibot va monitoring markazi** rahbari M.Xamidov o'z fikrlarini davom ettirdi.

Ayni paytda "Noila" IKHTM markazi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi buyurtmasi asosida BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda **"NAVOIY TAJRIBASI: maishiy korrupsiyaga qarshi kurashishda ijtimoiy fikrni o'rganish samarali vosita"** nomli loyihani amalga oshirayotgan bo'lib, mazkur loyiha doirasida:

- viloyatning 11 ta shahar va tuman hokimliklarida hamda 12 ta mahalliy davlat organlari huzuridagi Jamoatchilik Kengashining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faoliyatini monitoring qilish, a'zolar orasida ijtimoiy so'rov o'tkazish, mahalliy davlat organlaridagi, "Murojaat qutisi"ni holatini o'rganish, maishiy korrupsiyani oldini olishda ularning samaradorligini oshirish maqsadida "Adolat va halollik qutisi"ga aylantirish, Reglamentini belgilash va tegishli davlat organi huzuridagi Jamoatchilik Kengashi vakolatiga kiritish amaliyotini yo'lga qo'yish;

- maxsus "Navoiy tajribasi: maishiy korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik fikri" nomli telegram kanali va guruhini yaratish va doimiy faoliyatini yo'lga qo'yish (unga MFY raislari, hududiy Jamoat Kengashlari a'zolari, jurnalist va bloggerlar hamda NNTlar vakillaridan iborat 500 nafar a'zolar kiritilib, ular bilan doimiy axborot almashinuvi yo'lga qo'yish);

- Navoiy davlat universiteti (100 nafar respondent), Navoiy davlat konchilik

va texnologiyalar (100 nafar respondent), Navoiy Innovasiyalar Universiteti (100 nafar respondent), Navoiy «PROFI» Universiteti (100 nafar respondent), Navoiy «SHARQ» universitetida (100 nafar respondent) talabalar hamda o'qituvchi-professorlar orasida korrupsion xulq-atvorga nisbatan barqaror axloqiy pozitsiyani shakllantirish bo'yicha ijtimoiy so'rovlar va targ'ibot tadbiri o'tkazish, Jamoatchilik Kengashi bilan muloqot qilish, Universitetlar huzuridagi "Murojaat qutisi"ni holatini o'rganish, maishiy korrupsiyani oldini olishda ularning samaradorligini oshirish maqsadida "Adolat va halollik qutisi"ga aylantirish, Reglamentini belgilash va Universitetlar huzuridagi Jamoatchilik Kengashi vakolatiga kiritish amaliyotini yo'lga qo'yish;

- Navoiy viloyatidagi o'rta maxsus bilim yurtlari o'quvchilari orasida korrupsion xulq-atvorga nisbatan barqaror axloqiy pozitsiyani shakllantirish bo'yicha ijtimoiy so'rovlar va targ'ibot tadbirlari amalga oshirish (200 nafar respondent) ta'lim muassasalari huzuridagi "Murojaat qutisi"ni holatini o'rganish, maishiy korrupsiyani oldini olishda ularning samaradorligini oshirish maqsadida "Adolat va halollik qutisi"ga aylantirish, Reglamentini belgilash va ta'lim muassasalari huzuridagi Jamoatchilik Kengashi vakolatiga kiritish amaliyotini yo'lga qo'yish;

- Viloyat Nogironlar jamiyati va Nogironlar assosiasiyasi bilan hamkorlikda maishiy korrupsiyani oldini olish Jamoatchilik guruhini tashkil etish, uni a'zolari ro'yxatini shakllantirish va tegishli tartibda o'quv-trening tashkil qilgan holda doimiy faoliyatini yo'lga qo'yish, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish (tanlangan 100 nafar respondent);

- Loyiha doirasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovlar va tadbirlar natijalarini keng tahlil qilish, maishiy korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishda "Yosh mutaxassislarning korrupsion xulq-atvorga nisbatan barqaror axloqiy pozitsiyani shakllantirishning psixologik mexanizmlari" mavzusida turkum xalqaro ilmiy-ommabop materiallar berib borish, amaliyotdan ilmiy-tadqiqotlar yaratish va ommalashtirish choralari ko'rish belgilanganligi alohida ta'kidlandi.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 21 apreldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" PF-71-sonli Farmoni hamda 2025 yil 4 iyunda Oliy Majlis Senati raisi T.Narbaeva boshchiligida Konimex tumanida o'tkazilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy Kengashining navbatdagi yig'ilishida tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"ning 26-bandi ijrosini hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19 sentyabrdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-288-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida **"NAVOIY TAJRIBASI: maishiy korrupsiyaga qarshi kurashishda ijtimoiy fikrni o'rganish samarali vosita"** loyihasini amalga oshirish bo'yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish viloyat hududiy Kengashi bilan kelishilgan holda Navoiy viloyati hokimligining tegishli chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash maqsadga muvofiq ekanligi zarur ekanligi aytib o'tildi.

Yig'ilishda shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish viloyat hududiy Kengashi a'zolari tomonidan 2025 yilda turli yo'nalishlarda Navoiy viloyatidagi NNTlarga ajratilgan 23 ta grant loyihalari asosida taqdimotlar o'tkazilishi maqsadga

muvofiq ekanligi to'g'risida o'z fikrlarini bildirib o'tdilar.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan yig'ilish ishtirokchilarining bildirgan fikr-mulohazalarini inobatga olib, yig'ilish

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2025-yil 5-mart kuni o'tkazilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Milliy kengash yig'ilishida berilgan topshiriqlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-71-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining "Aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi hamda madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish to'g'risida" 2025-yil 27-yanvardagi KQ-49-V-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy Kengashining 28-sonli bayonnomasi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Navoiy viloyati Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashi, Navoiy viloyati hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda barcha tuman, shahar hokimliklari huzuridagi Jamoatchilik Kengashlari a'zolarilarining hamda viloyatdagi barcha NNTlar hamda fuqarolik jamiyati instituti vakillarining e'tibori kun tartibidagi muhokama qilingan masalaga qaratilib Davlat rahbariyati tomonidan belgilab berilgan vazifa va topshiriqlardan sohaga aloqador bo'limlari va bandlarini belgilangan tartib va muddatlarda bajarilishini ta'minlashlari tushuntirilib tavsiya etilsin.

3. 9 dekabr - "Xalqaro korrupsiya kuni"ga bag'ishlangan "Aksilkorrupsiya oyligi doirasida o'tkaziladigan tadbirlar rejasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy Kengashi majlisining 28-sonli bayonnomasida belgilangan "Hududlarda nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida amalga oshirilgan grant loyihalari taqdimoti" bandi ijrosi yuzasidan Navoiy viloyati Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashi a'zosi, Navoiy viloyati hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi kotibi, Navoiy viloyati "Noila" ijtimoiy ko'mak, huquqiy targibot va monitoring markazi rahbari M.Xamidovning taqdimot hisoboti qabul qilinsin.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida grant loyihalarini puxta va samarali amalga oshirishda Navoiy viloyati "Noila" ijtimoiy ko'mak, huquqiy targibot va monitoring markazi tajribalari va yondoshuvlaridan foydalanish keng ommalashtirilsin.

5. Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi Navoiy viloyati hududiy bo'linmasi rahbari H.Jumayevga:

- Fond tomonidan 2025 yilda turli yo'nalishlarda Navoiy viloyatidagi NNTlarga ajratilgan 22 ta grant loyihalari ijrosi yuzasidan alohida grafik asosida taqdimotlar o'tkazilishini ta'minlash topshirilsin va buni kelgusida tegishli

mahalliy davlat organi Jamoatchilik Kengashlari yig'ilishida eshitib borish amaliyoti yo'lga qo'yilsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 21 apreldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" PF-71-sonli Farmoni hamda 2025 yil 4 iyunda Oliy Majlis Senati raisi T.Narbaeva boshchiligida Konimex tumanida o'tkazilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy Kengashining navbatdagi yig'ilishida tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"ning 26-bandini ijrosini hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentyabrdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-288-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida **"NAVOIY TAJRIBASI: maishiy korrupsiyaga qarshi kurashishda ijtimoiy fikrni o'rganish samarali vosita"** loyihasini amalga oshirish bo'yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish viloyat hududiy Kengashi bilan kelishilgan holda Navoiy viloyati hokimligining tegishli chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilsin kelishish hamda qabul qilish uchun Navoiy viloyati Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashi, Navoiy viloyati hokimligiga kiritilsin.

8. Navoiy viloyati Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashi, Navoiy viloyati hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda barcha tuman, shahar hokimliklari huzuridagi Jamoatchilik Kengashlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentyabrdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-288-son qarori Ilovasi 3-bandida belgilangan "Fuqarolik jamiyati institutlarining loyihalari va tashabbuslarini amalga oshirish orqali har bir hudud va soha kesimida maishiy korrupsiya holatlarini keltirib chiqaradigan omillarni bartaraf qilishga qaratilgan "Navoiy tajribasi"ni yaratish" borasida:

- hududlarda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan shu jumladan, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga nisbatan javobgarlik muqarrarligiga oid normativ hujjatlar mazmun-mohiyatini tizimdagi soha xodimlariga tushuntirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot qilish;

- mazkur yo'nalishdagi axborot ma'lumotlarini tayyorlash va keng tarqatish, xususan mavzuga oid videoroliklar yaratish, bosma materiallarni chop etish hamda boshqarma va uning quyi tashkilotlari va muassasalarining kirish joylarida targ'ibot materiallarini joylashtirish;

- maishiy korrupsiya holatlari ko'p uchraydigan sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarni keng jamoatchilikka muntazam yetkazib borish va OAVda yoritish maqsadida ochiq eshiklar kuni, press tur, brifing, ochiq muloqotlar tashkil etish;

- korrupsiya holatlari bo'yicha xabar berish tartibi yuzasidan aholi va soha xodimlariga tushuntirish ishlarini amalga oshirish ishlarini davom ettirish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan mahalliy davlat organlarining quyi tizimlarida doimiy jamoatchilik monitoringlari o'tkazib borish tavsiya etilsin.

9. Mazkur bayonnoma ijrosini nazorat qilish Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondining viloyat hududiy bo'linmasi boshlig'i H.Jumayev hamda Navoiy viloyati hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi kotibi M.Xamidov zimmalariga yuklatilsin.

Bayonnomani rasmiylashtirdi



X.F.Жумаев